

**Hilola Raimova
FarDU doktoranti**

“KULBAM SORI GAR KELSANGIZ...”

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amiri ijodining serqirraligi, unijg betakror o‘xshatishlardan foydalanish mahorati haqida so‘z boradi. Amiriyning ishqiy mavzuda yaratilgan g‘azali tahlil qilinib, badiiy tasvir vositalari aniqlangan. Shuningdek, g‘azalning vazni va qofiya tizimiga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, ishqilohiy, zulmanaynlik, tashbeh, tashxis, kitobat, vazn, qofiya, matla, maqta, oshiqlik qismati.

Абстрактный: В этой статье говорится о блеске творчества Амири, его умении использовать уникальные сравнения. Проанализирована газель Амири, созданная на романтическую тему, и определены средства художественного изображения. Также уделяется внимание весу и системе рифм газели.

Ключевые слова: Газель, божественная любовь, тьма, аллегория, диагноз, китабат, вес, рифма, матла, восхваление, судьба любви.

Abstract: This article talks about the brilliance of Amiri's work, his ability to use unique similes. Amiri's ghazal created on a romantic theme was analyzed and the means of artistic representation were determined. Attention is also paid to the weight and rhyme system of the ghazal.

Key words: Ghazal, divine love, darkness, allegory, diagnosis, kitabat, weight, rhyme, matla, praise, fate of love.

Amiri ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning naqadar serqirra iste’dod sohibi bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Uning she’riyati rang-barangligi, mazvular ko‘lamining kengligi va zulmanaynligi bilan kishi e’tiborini tortadi. Ishq mavzusi tarannum etilgan qator g‘azallari aynan shu ma’nolarning serjiloligi bilan o‘quvchiga zavq beradi. Jumladan, shoirning “Kulbam sori gar kelsangiz, jon naqdidir podoshingiz” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali ham aynan shunday g‘azallar sirasiga kiradi. Chunonchi, g‘azalning birinchi baytiga e’tiborni qaratamiz.

Kulbam sori gar kelsangiz, jon naqdidir podoshingiz ,

Ko‘z ashki birla suv sepib, mijgon bo‘lur farroshingiz. [1,119]

Avvalo, baytdagi tushunarsiz so‘zlarga izoh berib o‘tamiz: podosh – mukofot, badal; mijgon – kiprik. Amiriyan san’atkorona shoir sifatida ushbu baytda chin oshiqning holatini ochib berishga urinadi. Ushbu g‘azaldagi oshiq ma’shuqasining bir marta kulbayi vayronasiga kelishi uchun jonini mukofot sifatida bermoqqa tayyor. Bu ham kamlik qilib, endi oshiq ma’shuqasining nozik qadamlari yetgan ko‘chani supurib qo‘yish uchun kipriklarini xizmatkorga aylantirishga ham hozir turibdi. Va hatto kipriklari bilan supurilgan yo‘lga ko‘z yoshlaridan suv sepmoqchi. Illohiy ishqqa mubtalo bo‘lgan oshiq ma’shuqasi uchun har narsaga tayyor, hatto jonini uning yo‘liga fido qilishga-da... Bir bor yorining kelishi uchun jonini mukofot tarzida in’om etib yubormoqqa hozir.Ushbu baytda tanosub va mubolag‘a san’atlarini uchratishimiz mumkin.

Ey do‘sstar, ahboblar, bu anjumanda shamdek

Man jon nisor ettim, vale sizning nedur kengoshingiz? [1,119]

Ushbu baytda oshiq “Ey do‘stlar” deya murojat qilib, men ishq ko‘yida shamdek o‘zimni qurbon qildim, lekin sizlarchi , deya murojaat qiladi. Sham ham o‘zgalarni zulmatdan xalos etaman deb o‘zi yonib tugaydi. Haqiqiy oshiq ham yor ko‘yida o‘zini unutadi.Byatda tashbeh, nido va savol-javob san’atlarini ko‘rish mumkin.

Ishqu muhabbat javridin har dam mani o‘lturgoni,

Boshin egib bir-biriga kengoshti ikki qoshingiz. [1,119]

Ushbu baytda oshiq ishq yo‘lida chekkan azoblarini yodga olar ekan bu ham kamlik qilgandek, hatto yorimning ikki qoshi ham meni o‘ldirish uchun bir-biri bilan maslahat qilyapti deya e’tirof etar ekan, boshqa bir tomonidan mashuqaning oshiqqa sira kulib boqmay, har dam qovoq uyishini ham ta’kidlagandek bo‘ladi. Chin oshiq uchun ishqning o‘zi eng katta dard, endi yorining unga yomon munosabatda bo‘lishi ana shu dardni ikki hissaga orttiradi.

Baytda mubolag‘a va yorning ikki qoshini oshiq ustidan hukm chiqarish uchun maslahat qilish holatiga nisbatan tashxis san’ati qo‘llangan.

Ey, kosh qilg‘aysiz safar, biz sori solgaysiz nazar,

Azmi safar etgon chog‘i bo‘lsun Hizr yo‘ldoshingiz. [1,119]

Ushbu baytda oshiq mashuqasiga murojaat qiladi. Bu baytni ikki xil tahlil qilish mumkin. Birinchisi, oshiq agar biz tomonga nazar solib, inoyat ko‘rsatadigan bo‘lsangiz kelar chog‘ingizda yaxshiliklar hamrohingiz bo‘lsin, deya yoriga murojaat qiladi. Ikkinci ma’noda esa, safar butun insoniyatning QISMATI – tiriklik safari, yana ishqqa mubtalo bo‘lgan insonning OSHIQLIK safari. Ma’shuqasiga murojaat qilib, agar safar chog‘da bizga bir nazar tashlaydigan bo‘lsangiz Hizr alayhissalom (abadiy umr ramzi) sizga hamroh bo‘lsin deb yoriga uzoq umr tilaydi. Hizrdek barhayot bo‘lishini xohlaydi. Ushbu baytda ham nido san’ati, shuningdek, tanosub hamda talmeh san’atlarini uchratish mumkin.

Sham’i jamol atrofidin charx urgoni parvonadek,

To‘rtinchi toram ustida xurshid erur xuffoshingiz. [1,119]

Baytda yorning yuzini shamga qiyos etar ekan oshiq, men uning atrofida aylanguvchi parvonaman deydi. Parvona tabiatiga ko‘ra nobut bo‘lishini bilsa ham shamning oldidan ketmaydi, alal oqibat o‘zni qurbon qiladi. Muhabbatga asir bo‘lgan kishi ham qurbonlikni bo‘yniga olib bu yo‘lni tanlaydi. Birinchi misrada ma’shuqaning husn-u latofati-yu uni oshiqqa yetkazgan sitamlari tilga olinib,sham va parvonaga muqoyosa qilinar ekan, ikkinchi misrada ma’no yana ham kuchaytiriladi. Ya’ni, to‘rtinchi gumbazga ko‘tarilgan mashuqaga quyoshning ko‘zi tushgach, hatto quyosh ham xiralashib qolgani aytildi. Bu yerda toram – baland gumbazli uy, xuffosh- ko‘rshapalak. Baytda tashbeh, hamda quyosh va ko‘rshapalak so‘zlari orqali tazod san’ati yuzaga kelgan.

Ey, ko‘zlarimning mardumi ul gul visoli ko‘yida

Atfoldek yuz sho‘r ila har yon yugurdi yoshingiz. [1,119]

Ushbu baytda endi oshiq o‘ziga murojaat qiladi, alamli ko‘z yoshlariga murojaat qiladi. Ul berahm yorimning visoli umidida sizlar yosh boladek har yon yuguryapsizlar deya betakror o‘xshatish qiladi, lekin bunga ma’shuqam parvo ham qilgani yo‘q. Demak, oshiq visol umidida achchiq ko‘z yosh to‘kmoqda. Bu orqali esa jonlantirish va tashbeh san’atlari hosil bo‘lgan

Qur’ong‘a “Toho” bitsalar, tortarlar ikki mad ango,

Ul mus’hafi ruxsor uza andoqli ikki qoshingiz. [1,119]

Yuqoridagi baytlardan farqli o‘laroq ushbu baytda avval misol keltirilib, keyin ma’shuqa husni ta’rifiga o‘rin beriladi. Ya’ni birinchi misraning mazmuniga ko‘ra bu yerda Qur’ondagi “Toho” surasiga ishora qilinyapti. “Toho” so‘zining yozilishida “ت” hamda “ح” harflaridan keyin “madd”li “Alif” yoziladi. Bu yerda oshiq ma’shuqasining yuzini Qur’onga qiyos qilar ekan uning ikki qoshini ana shu “Toho” so‘zidagi “alif”lar ustiga qo‘yiladigan “madd”larga qiyos qiladi, va shu o‘rinda kitobat san’atining ajoyib namunasini yaratadi. Yaratgan Allohim Qur’oni karimdagagi surani qanday bino qilgan bo‘lsa, sening husningni ham shunday betakror chizgan, degan mazmun kelib chiqadi. Baytda kitobat bir qatorda talmeh va tashbeh san’atlarini ham uchratish mumkin.

Ey sarvqadlar sarvari, istarAmir iqbolingiz,

Boshig‘a savdo soldingiz, bo‘lsin salomat boshingiz. [1,119]

Amiriylar lirikasini inson taqdidi, xarakteri va ahvol-ruhiyasining o‘ziga xos ifodasi deyish mumkin [2,60]. Ijodining shu xususiyatidan kelib chiqar ekan, shoir maqtada oshiq yoriga sarvqadlar sarvari deya murojaat qilar ekan, unga faqat va faqat yaxshiliklar tilaydi. Meni boshimga savdolarni solib, qiyinchiliklarimga sabab bo‘lgan esangizda menga sizning iqbolingiz bo‘lsa bas deydi. Haqiqiy oshiq, haqqa oshiq sifatida ma’shuqaga salomatlik tilaydi. Baytda tanosub va tazod san’atlarining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda g‘azalda boshdab oyoq tamsil san’atiga ham murojaat qilingan.

Ushbu g‘azalda podosh, farrosh, kengosh, qosh, yo‘ldosh, xuffosh, yosh, bosh kabi arabiyy va turkiy so‘zlar qofiyadosh qilib olingan. Qofiyaga olingen so‘zlardan keyin egalik qo‘shimchasi ham kelin mutloq qofiya turini tashkil etgan. G‘azal sakkiz baytdan iborat bo‘lib, aruzning rajazi musammani solim (mustaf‘ilun-mustaf‘ilun-mustaf‘ilun-mustaf‘ilun, --v---v---v---v-) [3,336] vaznida yozilgan.

Umuman olganda, Amiriyning bu kabi go‘zal o‘xhatishlar bilan ziynatlangan g‘azallari talaygina. Uning ijodi o‘quvchiga zavq, ma’naviy ozuqa berish birga bir muddat o‘yga ham toldiradi. Kishini beixtiyor tafakkur qilishga undaydi. Bu mumtoz adabiyotning zulmanaynlik xususiyatiga tegishlidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amiriylar. Devon.O’zbekcha she’rlar. Toshkent “Tamaddun” 2017.1-qism 119-bet
2. Zebo Qobilova. Amiriylar she’riyati. Toshkent “Fan” nashriyoti 2010.60-bet
3. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent “Navoiy universiteti” 2018. 336-bet.